



MULOQOT MADANIYATI VA UNING JAMIYATDAGI O'RNI

Xusanova Delfuza Karamatillayevna

Namangan viloyati Pop tumani MMTB ga qarashli 42-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot va uning rivojlanishi, jamiyatda tutgan o'rni hamda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro ijtimoiy muloqat va manaviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi muhim fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, madaniyat, muloqot ko'nikmalar, yoshlar, jamiyat, shaxs, muloqot, faoliyat, kommunikatsiya.

Kirish

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Shaxs – ijtimoiy munosabatlardan mahsuli deyilishining eng asosiy sababi uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatib, bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Insoniy munosabatlarda dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-qvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlardan tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylig, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaktsiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligida namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Shuning uchun ham muloqot, uning jihatni, tabiatni, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi

o'rni va salohiyati keskin oshdi. Muloqot hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlanishini o'z ichiga olib, bunday ma'lumot almashinuv muloqotning kommunikativ jihatni sifatida ta'riflanadi.

Asosiy qism

Insonlar o'rtasidagi muloqot va uning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning ikkinchi jihatida – munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham almashinushi nazarda tutilib, bu muloqotning interaktiv jihatni deb yuritiladi. Nihoyat, muloqotning uchinchi jihatni pertseptiv deb atalib, bunda munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi. Shunday qilib, muloqot jarayonida shartli ravishda uchta, ya'ni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (hamkorlikda harakat qilish) va pertseptiv (o'zaro birqalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin. Ana shu uchta jihatning birligi muloqot jarayonida hamkorlikdagi faoliyat va jalb etilgan odamlarning o'zaro birqalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi. Muloqot bo'yicha o'rganilgan manbalarning tahliliga ko'ra shaxsning kamolga etishida muloqot muhim omil sanaladi. Ayniqsa shaxs bilim ko'nikma tasavvur tushuncha fikrlar imkoniyatiga ega bo'lish uchun albatta insonlar bilan muomala munosabatga kirishishi lozim. Shu bois allomalarimiz tomonidan keltirilgan fikrlar hozirgi kun yosh avlodni tarbiyalashda dasturi-amal vazifasini o'tab kelmoqda. Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ruyobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. SHuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish -

bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi. Do'stona muloqot o'rnatish va do'st tutinish muammosi o'spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanadi. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

- 1) Hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsiyal muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.
- 2) Muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.
- 3) Insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallahsga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.
- 4) Shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Xulosa o'rnida Bolaning ruhiy taraqqiyotida ontogenezning dastlabki bosqichi davridagi uning kattalar bilan muloqoti, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Muloqotda, avvalo,to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish, keyinchalik vikar o'rganish, so'ngra esa, verbal o'rganish – iborali qoidalar orqali bolaning hayotiy tajribasi orttirilib boriladi. U bilan muloqotda bo'ladigan odamlar bola uchun bu tajribani tashuvchi bo'lib xizmat qiladi va muloqotdan tashqari, boshqa hech qanday vosita

yordamida bunga erishib bo'lmaydi. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so'zlar, qarashlar, qo'l siqishlar o'ta muhimdir, ba'zida ular ko'p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Groxiyev, V.S. —Pedagogik muloqot madaniyati. — O'qituvchi uchun kitob M.: Akademiya, 2007 yil.
2. Dareneskaya, L. —Muloqot madaniyatini tarbiyalash!.
3. Zanina, L.V. Menshikova N.P. —Pedagogik mahorat asoslari —Rostov-na-Don, 2003 .
4. Ilyin, E.N. Muloqot san'ati -M.: Akademiya, 2006 yil.